

TIJORAT BANKLARINING AKTIVLARI VA ULARNI BOSHQARISH.

Abduvahobov Shaxzod

Istamov Dostonbek

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqola Bank ishi asoslari fanining Tijorat banklari aktivlari va ularni boshqarish mavzusini rivojlantirish va tijorat bank aktivlari haqida ma'lumot olishga bag'ishlangan. Shuningdek, bank aktivlari bilan bog'liq turli hollarda qanday chora ko'rishni o'rganish ham ko'zda tutiladi. Har qanday muammoli vaziyatlarda ham aktivlarga maqul keladigan xizmatlarni ko'rsatish va tijorat banklari faoliyatini yanada rivojlantirish ham bosh g'oya deb belgilanadi.*

Kalit so'zlar: *bank aktivlari, muamoli aktivlar, zaxiralar, qarzdorlik.*

Аннотация: *Данная статья посвящена развитию темы «Основы банковского дела, активам коммерческих банков и управлению ими», а также получению информации об активах коммерческих банков. Также предполагается научиться принимать меры в различных случаях, связанных с банковскими активами. Основная идея – предоставление благоприятных для активов услуг даже в любых проблемных ситуациях и дальнейшее развитие деятельности коммерческих банков.*

Ключевые слова: *активы банка, рыночные активы, резервы, задолженность.*

Abstract: *This article is dedicated to the development of the subject of the Fundamentals of Banking, the assets of commercial banks and their management, and to obtaining information about commercial bank assets. It is also intended to learn how to take measures in various cases related to bank assets. The main idea is to provide services favorable to assets even in any problem situations and to further develop the activities of commercial banks.*

Key words: *bank assets, marketable assets, reserves, indebtedness.*

KIRISH

Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish fanining asosiy maqsadi –tijorat banklari aktiv va passivlarini shakllantirish, samarali boshqaruvni tashkil etish, tijorat banklari aktiv va passivlari monandligini taminlash, likvidlilik va rantabellikni boshqarish usullarini tatbiq qilish, tijorat banklari aktiv va passivlarini operativ va strategic rejalashtirish, inovatsion xizmatlarni tatbiq etish masalalarini o'rgatish bo'lib hisoblanadi.

Aktivlar — kredit, mikroqarz, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qog'ozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablag'lar, olinishi lozim bo'lgan hisoblangan va (yoki) undirilmagan foizli va foizsiz daromadlar, bankning boshqa xususiy mulklari, bo'lib-bo'lib to'lash shaklida sotilgan mulklar, balansdan tashqari moddalar (chaqirib

olinmaydigan kredit majburiyatlari, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar) hamda kredit tavakkalchiligi mavjud bo'lgan boshqa aktivlar va balansdan tashqari moddalar.

Muammoli aktivlar — sifati “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” deb tasniflangan aktivlar.

Maxsus zaxiralar — sifati “substandart”, “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” deb tasniflangan aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplashga mo'ljallangan majburiy zaxiralar.

Standart aktivlarga yaratiladigan zaxiralar — tijorat banki faoliyati davomida umuman yoki biror-bir faoliyat turi natijasida ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash maqsadida tashkil qilinadigan zaxiralar.

Shartlari qayta ko'rib chiqilgan aktivlar — shartnoma va (yoki) unga qo'shimcha kelishuvga muvofiq asosiy shartlari o'zgartirilgan aktivlar.

Ta'minlanmagan aktivlar — ta'minoti belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan aktivlar.

Aktivning jami qiymati — aktivning bank balansida va balansdan tashqari moddalarda aks ettirilgan asosiy qarzi va unga hisoblangan foizlari, penya, komission va boshqa foizsiz to'lovlari qoldig'ining ular bo'yicha yaratilgan zaxira ayrilmagan miqdori.

Kredit tavakkalchiligi — qarzdor tomonidan bank oldidagi majburiyatlarini shartnoma yoki qonunchilik hujjatlarida ko'rsatilgan muddat va shartlarda bajarilmasligi (lozim darajada bajarilmasligi) oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotish (zarar) va/yoki rejalashtirilgan daromadni olmaslik tavakkalchiligi.

Ko'pgina xorijiy banklar amaliyotida aktivlarni boshqarishning quyidagi usullaridan keng foydalaniladi:

Bank aktivlarini boshqarishning umumiy mablag'lar manbalari usuli bankning o'z va jalb qilingan mablag'larini birlashtirishni nazarda tutadi, bunda bankda dastlab birlamchi va ikkilamchi zaxiralar shakllantiriladi. Mazkur usulni qo'llashning keyingi bosqichida kredit portfeli shakllantiriladi. Banklar amaliyotida kredit mablag'lari aktivlarning yirik ulushini tashkil etadi va bank faoliyatida muhim o'rin tutadi, chunki banklar daromadlarining asosiy qismini yuridik va jismoniy shaxslarga kreditlash xizmatlarini ko'rsatishdan oladi. Ushbu usul jalb qilingan resurslarni imkon qadar bankning daromadli aktiv amaliyotiga yo'naltirishni nazarda tutadi. Banda bankdan likvidlilik va foydalilik tamoyillariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi, chunki resurslarni foyda olish uchun aktiv amaliyotlarga, xususan, ko'p miqdorda yuqori daromad keltiruvchi sohaga yo'naltirish, o'z navbatida risklilik darajasini nazoratdan chiqishiga yoki likvidlilik riskliligini yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli ushbu usulni resurslar ortiqchaligida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Aktivlarni taqsimlash usulini qo'llash esa, jalb qilinayotgan resurslarning manbalarini tahliliga asoslanadi. Mazkur usulda resurslarning manbalari bo'yicha taqsimlashda resurslarning aylanuvchanligi bilan bog'liq bo'lgan muayyan cheklanishlar yuzaga

keladi.

Ya'ni jalb qilingan qisqa muddatli resurslar qisqa muddatli aktivlar amaliyotlariga yo'naltiriladi. Mazkur usulning afzalligi shundaki, bu usulni qo'llash jarayonida resurslarni toifalarga qarab taqsimlash orqali likvid aktivlarning jami aktivlardagi ulushini qisqartirish imkoni yuzaga keladi. Ushbu ikkala usulning kamchiligi shundaki, bu holatlarda mijozlarning kreditlarga bo'lgan talabi va ehtiyoji yetarlicha qondirilmaydi, ya'ni kreditlashda mijozlarning kreditlarga bo'lgan mavsumiy talablari to'liq e'tiborga olinmaydi. Mazkur muammolarning yechimidan kelib chiqqan holda xorij tajribasida aktivlarni boshqarishda chiziqli dasturlash usulidan foydalanish ham keng tarqalgan bo'lib, mazkur usulning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bank aktivlarini boshqarishning chiziqli dasturlash usuli murakkab hisob-kitoblar orqali bir necha muqobil usullardan maqbulini tanlab olishni nazarda tutadi. Bu usul jalb qilinayotgan resurlarni qay tariqa yuqori daromad keltiruvchi va kam sarflarni talab qiladigan sohalarga joylashtirish vazifasi qo'yiladi.

Tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarish – bu pul mablag'larini jalb qilish va ularni joylashtirishni tartibga solish yo'llari va usullaridir. Bank foyda darajasi barqarorligini ta'minlash va ko'zda tutilmagan risklarni minimallashtirish maqsadida balansning aktivlari va passivlarining tegishli moddalarini doimo bir-biriga taqqoslab borishi zarur. Ushbu taqqoslash tijorat banklari aktivlari va passivlarini tegishli usullar, mezonlar va me'yorlarni qo'llab boshqarish orqali amalga oshiriladi.

Xulosa: Bugungi kunda bank munosabatlarini bank aktivlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bank aktivlari sifatini oshirish, ularni boshqarish, pul mablag'larini joylashtirishni tartibga solish va eng asosiysi tijorat banklarining faoliyatini rivojlantirishga hissa qo'shish asosiy maqsad deb belgilab olamiz. Shuni aytib o'tish kerakki, aktivlarni boshqarishda xorijiy bank usullaridan ham foydalanish juda samarali bo'ladi va tijorat banklari rivojlanishiga va yangi usullar kirib kelishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Possibilities of Increasing the Activity of Banks in the Securities Market, Journal of Advanced Research and Scientific Progress (JARSP), Volume 02 Issue: 03/2023 ISSN: 2751-7551 (159-162)

2. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Analysis of Existing Management Mechanisms and Assessment Methods of The Bank's General Financial Risk, Journal of Intellectual Property and Human Rights, Volume:02 Issue: 05/ May-2023, ISSN:2720-6882 (227-231)

3. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Improverment of Investment Activities in the Service Sector, Journal of Innovative Studies of Engineering Science (JISES), Volume:02 Issue:03/2023 (53-58)

4. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Factors Causing Credit Risks in Commercial Banks and Their Assessment, Journal of Intellectual Property and Human, Volume:02 Issue:05/May-2023 ISSN:2720-6882 (221-226)

5. www.lex.uz -O`zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

6. www.nbu.uz - O`zbekiston milliy banki.